

Qishloq aholisining iqtisodiy ta'lif olish bo'yicha imkoniyatlari yetarli darajda emasligi. Qishloq joylarda iqtisodiy faoliyat shakllari va ta'lif olish imkoniyati cheklanganligi sababli moliyaviy savodxonlik kamroq bo'lishi mumkin. Bu muammolarni bartaraf etish davlat, ta'lif muassasalari va jamoat tashkilotlari tomonidan hududiy ehtiyojlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan dastur va resurslarni yaratishga harakat qilishni talab etadi.

Hududlarda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin:

- yoshlarda asosiy moliyaviy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun maktab va universitet dasturlariga moliyaviy ta'lifni joriy etish;
- kattalar uchun o'quv dasturlari va tadbirlarini, jumladan, moliyaviy menejment bo'yicha seminarlar, vebinarlar va kurslarni yaratish;
- moliyaviy savodxonlikning asosiy tamoyillarini ommalashtirish uchun ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot kampaniyalarini o'tkazish;
- davlat va nodavlat tashkilotlari orqali moliyaviy rejalashtirish va qarzлarni boshqarish sohasida qulay maslahat va yordam ko'rsatish;
- ta'lif dasturlarini yaratish va moliyaviy savodxonlikni qo'llab-quvvatlash uchun resurslar bilan ta'minlash uchun korxonalar va banklar bilan hamkorlik qilish.
- moliyaviy klublar va jamoalar kabi moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

Ushbu chora-tadbirlarning umumiyligi ta'siri moliyaviy savodxonligi yaxshilangan axborotlashgan jamiyatni yaratishga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. Боддашевский, А. Основы финансовой грамотности: краткий курс / А Боддашевский. – Москва: Альпина паблишер, 2019. – 304 с.
2. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma / A.V. Vaxabov, Sh.A. Toshmatov, N.X. Xaydarov, A.V. Vaxabov. — Toshkent: Baktria press, 2013, 288 b.

**MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA SOLIQ
IMTIYOZLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH**

Safarov Radjabboy Eshmuhammadovich
Farg'ona soliq texnikumi yetakchi o'qituvchisi

Davlatimizda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida «O'zbekiston — 2030» strategiyasi ishlab chiqildi. Ushbu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-soni farmoni 2023 yil 11 sentyabrda qabul qilingan bo'lib, u quyidagi asosiy g'oyalarni o'z ichiga oladi:

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rinn olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lif, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagiadolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash [1].

Yuqoridagi g'oyalardan biri bo'lgan iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlash uchun esa iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va tartibga solish mexanizmlari zarur hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi uning tartibga solish usul va vositalari orqali namoyon bo'ladi. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi ma'muriy, huquqiy hamda iqtisodiy usullardan iborat. Ma'muriy usullarga tashkiliy-institutsional usullar, monopoliyaga qarshi usullar, qonunchilik bajarilishi nazorati, kadrlarni o'qitish va qayta tayyorlash kabi usullar kiradi. Huquqiy usullarga byudjetlararo munosabatlar va soliq qonunchiligini ishlab chiqish, mulkchilik munosabatlarini tartibga solish, investorlar huquqlarini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish va hokazolardan tashkil topadi. Iqtisodiy usullarga esa byudjet orqali tartibga solish, pul-kredit orqali tartibga solish, soliq orqali tartibga solish, baho va tariflarni tartibga solish, investitsiya siyosati, ilmiy-texnika va innovatsiya siyosati, aholi daromadlarini tartibga solish siyosati hamda tashqi iqtisodiy siyosat kabilari kiradi.

Ma'lumki, soliq tizimini takomillashtirish orqali soliq ma'muriyatichiligi shaffofligini ta'minlash, soliq to'lovchilarining huquqiy savodxonligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilish borasida muayyan yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, 2024 yilda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash borasida soliq stavkalarini pasaytirish va unifikatsiya qilish hamda qo'shimcha qulayliklar yaratildi.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi amaldagi 12 foiz stavka saqlanib qolindi.

Tovar aylanmasi 500 mln so'mgacha bo'lgan tadbirkorlar uchun yiliga 25 mln so'm, aylanmasi 500 mlndan yuqori bo'lganlar uchun yiliga 34 mln so'm miqdorida qat'iy belgilangan soliqni har oyda teng ulushlarda to'lash huquqi berildi. Ushbu soliq to'lovchilar buxgalteriya hisobini yuritishdan hamda foydasidan to'lanadigan divident solig'idan ozod qilinadi.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida tovar aylanmasi 1 mlrd so'mdan oshgan kichik biznes toifasiga kiruvchi tadbirkorlar uchun 1 yil davomida foyda solig'i stavkasini 2 baravarga kamaytirildi.

2024 yil uchun belgilangan soliq siyosatida asosiy soliq stavkalari foyda solig'ining bazaviy stavkasi 15 foiz, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 12 foiz, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 1,5 foiz miqdorida saqlab qolindi.

2024 yilda davlat byudjeti daromadlari 270 403,1 mlrd so'm prognoz qilindi (2023 yilda 232 607 mlrd so'm). Bunda foyda solig'i 39 730,5 mlrd so'm, jismoniy

shaxslardan olinadigan daromad solig'i 15 967,2 mlrd so'm, Qo'shilgan qiymat solig'i 74 045,7 mlrd so'm, Aktsiz solig'i 17 478,8 mlrd so'm, bojxona boji 14 839,6 mlrd so'm, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq 16 290,3 mlrd so'm, mlrd so'm etib prognoz qilindi. [2]

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar orqali ko'rishimiz mumkinki, jismoniy va yuridik shaxslarning soliq yuki sezilarli darajada kamaygan, demak 15,1 trln so'mdan ortiq mablag' aholi turmush darajasining yaxshilanishiga sarflanadi hamda soliq bazasining kengayishiga olib keladi.

Foydalanalgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni
2. "Фуқаролар учун бюджет: 2023 йил учун тасдиқланган бюджет" ахборот нашири
3. <https://www.soliq.uz>

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDGETINI SHAKLLANTIRISHDA
JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Salimov Sherzod Baxtiyorovich
*Toshkent Davlat iqtisodiyot Universiteti
Soliqlar va soliqqa tortish katedrasi PhD*

Jismoniy shaxslarning daromad solig'i (JShDS) - bu jismoniy shaxsning daromadidan undirilishi kerak bo'lgan majburiy to'lov hisoblanadi. Uni undirish tartibi soliq qonunchiligi bilan belgilanadi va progressiv stavkada tasniflanishi mumkin, ya'ni soliq to'lovchining daromadi oshishi bilan uning stavkasi oshadi, yoki proportsional stavkada bo'lishi mumkin, ya'ni soliq to'lovchining qancha daromad olishidan qat'iy nazar bir xil stavkada bo'ladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i byudjetni to'ldirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, uning yordami bilan mamlakatdagi moliyaviy ahvol tartibga solinadi. Hozirgi vaqtida soliq yukini imkon qadar kamaytiradigan yangi soliq sxemalari faol ishlab chiqilmoqda.

Jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari, Soliq xizmati ma'lumotlariga ko'ra, quyidagicha: O'zbekiston fuqarolarining ishdan olingan daromadlari 13% va olingan dividendlar bo'yicha - 5%, tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan boshqa mamlakatlar fuqarolari (nerezidentlar) uchun 10% va olingan dividendlar bo'yicha - 10% qilib belgilab qo'yilgan.

2024 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqlarining asosiy elementlari bo'lgan soliq stavkalari, soliqlarni hisoblash va to'lash tartibi, shu jumladan ShJBPHga 0,1% o'tkazish, to'lov muddatlari va hisob-kitoblarni taqdim etish bo'yicha o'zgarishlar sodir bo'lmagan bo'lsada, unga imtiyozlar berish bo'yicha ma'lum o'zgarishlar bo'ldi.